

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2018 yil 26 iyunda
qabul qilingan
Senat tomonidan 2018 yil 28 iyunda
ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan 163-I-sonli va 1996 yil 29 avgustda qabul qilingan 256-I-sonli qonunlari bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 yil, 2-songa ilova, № 11-12; 1997 yil, № 2, 56-modda, № 9, 241-modda; 1998 yil, № 5-6, 102-modda; 1999 yil, № 1, 20-modda, № 9, 229-modda; 2001 yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 182-modda; 2002 yil, № 1, 20-modda, № 9, 165-modda; 2003 yil, № 1, 8-modda, № 5, 67-modda; 2004 yil, № 1-2, 18-modda, № 5, 90-modda, № 9, 171-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006 yil, № 4, 154-modda, № 9, 494, 498-moddalar; 2007 yil, № 1, 3, 5-moddalar, № 4, 156, 164-moddalar, № 8, 367-modda, № 9, 416-modda, № 12, 598, 608-moddalar; 2008 yil, № 4, 192-modda, № 12, 640-modda; 2009 yil, № 9, 337-modda; 2010 yil, № 9, 335, 337, 340-moddalar; 2011 yil, № 12/2, 363, 364, 365-moddalar; 2012 yil, № 4, 106, 109-moddalar, № 12, 336-modda; 2013 yil, № 10, 263-modda; 2014 yil, № 5, 130-modda, № 12, 343-modda; 2015 yil, № 8, 310, 312-moddalar;

2016 yil, № 4, 125-modda; 2017 yil, № 4, 137-modda, № 9, 510-modda, № 12, 773-modda; 2018 yil, № 1, 4-modda, № 4, 224-modda) 565-moddasiga quyidagi qo'shimchalar kiritilsin:

ikkinchi qism «notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak» degan so'zlardan keyin «bundan ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno» degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirilsin:

«Engil avtomobillar va mototransport vositalarini ijaraga berish bo'yicha xizmat ko'rsatadigan yuridik shaxslar jismoniy shaxslar bilan engil avtomobillar va mototransport vositalarini o'ttiz kungacha bo'lган muddatga ijaraga berish shartnomalarini oddiy yozma shaklda tuzishlari mumkin».

2-modda. O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda qabul qilingan «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi 719-I-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 9 dekabrda qabul qilingan

O'RQ-380-sonli Qonuni tahririda) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2014 yil, № 12, 342-modda) quyidagi o'zgartishlar kiritilsin:

1) 6-moddaning birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Investitsiya loyihasi iqtisodiy, ijtimoiy naf va boshqa yo'sindagi naf olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga yoxud jalb etishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bo'lган tadbirlar kompleksi yoki alohida tadbirdir»;

2) 15-modda birinchi qismining to'qqizinchi xatboshisidagi «Investitsiya dasturiga» degan so'zlar «rivojlanish davlat dasturlariga» degan so'zlar bilan almashtirilsin;

3) 18-moddaning ikkinchi qismidagi «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi» degan so'zlar «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti» degan so'zlar bilan almashtirilsin;

4) 20-modda quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«20-modda. O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlari

O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlari – bu uzoq muddatli istiqbol uchun tasdiqlanadigan, tarmoq, hududiy va maqsadli rivojlanish kontseptsiyalari asosida shakllantirilgan hamda mamlakat iqtisodiyotini barqaror va izchil rivojlantirishga

erishishga, mavjud tabiiy, mineral-xomashyo, moliyaviy, moddiy, mehnat resurslaridan va boshqa resurslardan oqilona foydalanish yo'li bilan mamlakat iqtisodiyotining ayrim tarmoqlari hamda mintaqalarini tuzilmaviy jihatdan o'zgartirish bo'yicha asosiy ustuvorliklar va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan choralar majmuidir.

O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlari tasdiqlangan rivojlantirish kontseptsiyalari asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umum davlat dasturlari bajarilishini ta'minlash maqsadida uch yillik muddatga shakllantirilib, bunda investitsiya va infratuzilma loyi halarini amalga oshirish muddatlari hamda moliyalashtirish manbalari hisobga olinadi, ularning asosiy ko'rsatkichlari har yili aniqlashtirib va yangilab boriladi. O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini moliyalashtirish manbalari qonun hujjalarda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi»;

5) 21-moddaning birinchi qismidagi «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi» degan so'zlar «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti» degan so'zlar bilan almashtirilsin.

3-modda. O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 25 dekabrda qabul qilingan O'RQ-136-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007 yil, 12-songa 1-ilova; 2008 yil, № 12, 639-modda; 2009 yil, № 9, 330, 331-moddalar, № 12, 470, 472, 473-moddalar; 2010 yil, № 5, 178-modda, № 9, 334, 335, 336, 337-moddalar, № 10, 380-modda, № 12, 474-modda; 2011 yil, № 1, 1-modda, № 9, 248-modda, № 12/2, 364, 365-moddalar; 2012 yil, № 4, 106-modda, № 9/1, 238-modda, № 12, 334, 336-moddalar; 2013 yil, № 10, 263-modda, № 12, 349-modda;

2014 yil, № 1, 2-modda, № 9, 244-modda, № 12, 341, 343-moddalar; 2015 yil, № 8, 312-modda, № 12, 452, 454-moddalar; 2016 yil, № 4, 125-modda, № 9, 276-modda, № 12, 383, 384, 385-moddalar; 2017 yil, № 4, 137-modda, № 6, 300-modda, № 9, 510-modda, № 10, 605-modda, № 12, 772, 773-moddalar; 2018 yil, № 1, 1, 4-moddalar, № 4, 224-modda) 282-moddasi ikkinchi qismining 18-bandidagi «Investitsiya dasturiga» degan so'zlar «rivojlanish davlat dasturlariga» degan so'zlar bilan almashtirilsin.

4-modda. O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 26 dekabrda qabul qilingan O'RQ-360-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksiga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2013 yil, 12-songa 1-ilova;

2014 yil, № 9, 244-modda; 2015 yil, № 12, 452-modda; 2016 yil, № 12, 383, 385-moddalar; 2017 yil, № 6, 300-modda; 2018 yil, № 1, 1-modda) quyidagi o'zgartishlar kiritilsin:

- 1) 23-modda birinchi qismining to'rtinchi xatboshisidagi «Davlat investitsiya dasturida» degan so'zlar «rivojlanish davlat dasturlarida» degan so'zlar bilan almashtirilsin;
- 2) 49-moddaning ikkinchi xatboshisidagi «Davlat investitsiya dasturiga» degan so'zlar «rivojlanish davlat dasturlariga» degan so'zlar bilan almashtirilsin;
- 3) 152-modda beshinchi qismining ikkinchi xatboshisidagi «davlat investitsiya dasturlarini» degan so'zlar «rivojlanish davlat dasturlarini» degan so'zlar bilan almashtirilsin;
- 4) 154-modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisidagi «davlat investitsiya dasturini» degan so'zlar «rivojlanish davlat dasturlarini» degan so'zlar bilan almashtirilsin;
- 5) 177-moddaning beshinchi xatboshisidagi «davlat investitsiya dasturlarini» degan so'zlar «rivojlanish davlat dasturlarini» degan so'zlar bilan almashtirilsin.

5-modda. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 26 mayda qabul qilingan «Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi O'RQ-386-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2015 yil, № 5, 179-modda) quyidagi qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilsin:

- 1) 6-modda:

beshinchi qismi «bir yil muddatga tuziladi» degan so'zlardan keyin «bundan ushbu moddaning oltinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno» degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

quyidagi mazmundagi oltinchi qism bilan to'ldirilsin:

«Yo'lovchilarni va ularning mol-mulkini avtomobilda tashishni amalga oshiruvchi tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi uch oydan bir yilgacha bo'lgan muddatga tuzilishi mumkin»;

oltinchi va ettinchi qismlari tegishincha ettinchi va sakkizinchi qismlar deb hisoblansin;

- 2) 8-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisi

(bundan buyon matnda sug'urta polisi deb yuritiladi) tegishli blankada va tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasiga kiritilgan transport vositalarining soniga teng nusxalarda rasmiylashtiriladi. Sug'urta polisi blankasi qat'iy hisobda turadigan hujjat bo'lib, hisobga olish seriyasiga, raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo'lishi kerak.

Sug'urta polisida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:
sug'urtalovchi to'g'risidagi;

tashuvchining nomi va joylashgan eri (pochta manzili) haqidagi;

sug'urtalovchining, uning barcha filiallarining nomi, joylashgan eri (pochta manzili), ular bilan aloqa bog'lash vositalari hamda ularning ish vaqtini to'g'risidagi;

tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining amal qilish davri haqidagi;

sug'urta mukofoti to'g'risidagi;

sug'urta puli haqidagi;

tashuvchining transport vositasi (vagonlari) (turi, markasi, modeli, raqamli (tanituvchi) belgisi, ishlab chiqaruvchi zavod pasporti bo'yicha yo'lovchi sig'imi) to'g'risidagi;

tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasining boshqa muhim shartlari haqidagi»;

3) 16-modda ikkinchi qismining to'rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«tashish kunida amalda bo'lgan sug'urta polisining nusxasini tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasiga kiritilgan barcha transport vositalariga va (yoki) o'zining rasmiy veb-saytiga joylashtirishi».

6-modda. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 20 yanvarda qabul qilingan O'RQ-400-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Bojaxona kodeksiga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2016 yil, 1-songa ilova; 2017 yil, № 9, 510-modda; 2018 yil, № 4, 224-modda) quyidagi qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilsin:

1) 32-moddaning uchinchi qismi «Bojaxona hududida qayta ishlash bojaxona rejimida» degan so'zlardan keyin «yoki vaqtincha olib kirish bojaxona rejimida» degan so'zlar bilan

to'ldirilsin;

2) 64-modda to'rtinchi qismining to'qqizinchi xatboshisidagi «investitsiya dasturiga» degan so'zlar «rivojlanish davlat dasturlariga» degan so'zlar bilan almashtirilsin;

3) 245-modda:

birinchi qismining:

to'rtinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

beshinchi xatboshisi to'rtinchi xatboshi deb hisoblansin;

ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisi «kontraktlar bo'yicha muddati o'tgan debitorlik qarzi uzilguniga qadar rad etishga» degan so'zlardan keyin «bundan qonun hujjalarda nazarda tutilgan hollar mustasno» degan so'zlar bilan to'ldirilsin;

4) 260-moddaning «g» kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«g) tovarning kuzatuv hujjalardan foydalanilgan holda:

yuridik shaxslar uchun va yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar uchun qiymati eng kam oylik ish haqining o'n baravarigacha bo'lган tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishda, bundan tovarlar tashqi savdo kontraktlari (shartnomalari, kelishuvlari) bo'yicha majburiyatlarni bajarish doirasida olib o'tilayotgan va qonun hujjalarda belgilangan boshqa hollar mustasno;

xorijdagi ko'rgazma va yarmarkalarda namoyish etish uchun mo'ljallangan, ushbu tovarlarni deklaratsiyalash kunida rasmiy ayirboshlashning qiymati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha besh ming AQSh dollarigacha bo'lган ekvivalentdagi tovarlarni olib chiqishda, bundan qonun hujjalarda nazarda tutilgan hollar mustasno;

qiymati rasmiy ayirboshlashning ushbu tovarlarni deklaratsiyalash kunidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha bir ming AQSh dollarigacha bo'lган ekvivalentdagi tovarlarni umumjahon Internet tarmog'ida onlayn do'konlari orqali eksport qilish chog'ida amalga oshiriladi».

7-modda. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 24 yanvarda qabul qilingan O'RQ-461-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи palatalarining Axborotnomasi, 2018 yil,

1-songa 2-ilova) 27-moddasining matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Bankrotlik to'g'risidagi ishlar jumlasiga yuridik shaxslarni hamda yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va qonunda belgilangan tartibda yakka tartibdagi tadbirkor maqomini olgan fuqarolarni, shuningdek pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlarning talablarini qanoatlantirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir bo'lmasligi, yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo'qotgan jismoniy shaxslarni, agar pul majburiyatlari va majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlar ularning avvalgi tadbirkorlik faoliyatidan kelib chiqqan bo'lsa, bankrot deb topish to'g'risidagi ishlar kiradi».

8-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumatqarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin;

ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga etkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtaida tushuntirilishini ta'minlasin.

9-modda. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Ushbu Qonunning 5-moddasi ushbu Qonun kuchga kirgan kundan e'tiboran uch oy o'tgach amalga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining

Prezidenti

Sh. Mirziyoev